



## IQTISODIYOT TARAQQIYOT JARAYONIDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI

**Holmirzayeva Gulruh**

*Samarqand iqtisodiyoti*

*va servis instituti, Investitsiya va innovatsiyalar  
kafedrasi assistenti*

[gulruxxolmirzayeva@gamil.com](mailto:gulruxxolmirzayeva@gamil.com)

**Ziyodova Rayhona**

*Samarqand iqtisodiyoti va servis instituti, Iqtisodiyot fakulteti  
3-bosqich talabasi*

[rayhonaziyodova546@gmail.com](mailto:rayhonaziyodova546@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada innovatsiyalar hozirgi davrda iqtisodiyotni taraqqiy ettirishning muhim va ajralmas omillaridan biriga aylanib borayotgani hamda ularning bozor munosabatlari rivojini jadallashtiruvchi asosiy drayver sifatidagi roli ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion yondashuv va texnologiyalardan keng va samarali foydalanish orqali zamonaviy sharoitda tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan hamda ushbu yo‘nalishda amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** Innovatsiya, kapital, innovatsion jarayon, ishlab chiqarish omillari, innovatsion strategiya.

### **Kirish.**

Hozirgi davrda innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanishning eng muhim va o‘ziga xos omillaridan biri sifatida tobora mustahkam o‘rin egallab bormoqda. Avvalgi yillarda ushbu tushuncha noodatiy, yetarlicha aniqlanmagan, hattoki mutaxassislar doirasida ham to‘liq anglanilmagan hodisa sifatida talqin qilingan bo‘lsa, bugungi kunda innovatsiyaning mazmun-mohiyati va uning amaliy ko‘rinishlari global miqyosda jadal sur‘atlar bilan keng tarqalmoqda. Innovatsion jarayonlarning samarali amalga oshirilishida xalqaro kapital bozorining roli sezilarli darajada ortib bormoqda. Mazkur bozor innovatsiyalarni korxonalar faoliyati uchun strategik ahamiyatga ega resurs darajasiga ko‘tarib, ularning raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim moliyaviy asos vazifasini bajarmoqda. Shu bilan birga, yangi moliyaviy institutlar va investorlik mexanizmlarining shakllanishi ushbu jarayonni yanada



faollashtirmoqda. Biroq rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatni keng joriy etish jarayonida ko'pincha jamiyat a'zolarining salbiy munosabati, yangiliklarga nisbatan qarshilik ko'rsatish holatlari muhim to'siq sifatida namoyon bo'lada. Biroq, O'zbekistonda paradoksal vaziyat rivojlanmoqda, ya'ni butun jamiyat innovatsion jarayonlarga ijobiy munosabat va qo'llab-quvvatlashni bildirmoqda. Xususan, O'zbekistonda qabul qilingan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar va ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamaga qo'yilgan qonun loyihalarida o'z aksini topgan. Innovatsion faoliyat to'g'risida 2020-yil 27-iyuldagi O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonun, 2020-yil 26-martdagi PQ-4653-son "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021 yil 17 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori kabi me'yoriy hujjatlar shular jumlasidandir. Ushbu hujjatlarni qabul qilishdan maqsad tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, innovatsion tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko'maklashish, innovatsiyalar uchun qulay bo'lgan normativ-huquqiy, moliyaviy va axborot muhitini yaratishdan iborat. Shuningdek, sanoatda raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni oshirish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarishni ko'paytirish va ishlab chiqarish va eksport tarkibida ulushni oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilg'or boshqaruvni qo'llashni kengaytirish demakdir.

Mazkur tadqiqot ishining asosiy maqsadi iqtisodiyotni innovatsion yo'l bilan rivojlantirish hamda yangi tadbirkorlik subyektlarini shakllantirish orqali iqtisodiy tizimning umumiy salohiyati va samaradorligini yuksaltirishga xizmat qilishdan iboratdir. Tadqiqot doirasida qo'yilgan vazifalar sanoat tarmoqlarida raqobatbardoshlik va mehnat unumdorligini oshirish jarayonining bosqichlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini asoslab berishdan iborat. Shuningdek, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini kengaytirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, mahsulot ishlab chiqarish hamda eksport tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini ko'paytirish, innovatsion texnologiyalar va ilg'or boshqaruv usullarini joriy etishni kengaytirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash ham tadqiqot vazifalaridan biri hisoblanadi.

### **Mavzuga doir adabiyotlar tahlili:**

Ayrim tadqiqotchilarning yondashuviga ko'ra, hozirgi sharoitda an'anaviy iqtisodiyot bilan bir qatorda, mutlaqo yangi asoslarda shakllanib borayotgan iqtisodiy model ham mavjud. Bizning nuqtai nazarimizdan esa ushbu ikki modelni o'zaro qarama-qarshi qo'yishdan ko'ra, ularning ijobiy jihatlarini



uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, an'anaviy iqtisodiy tizim negizida zamonaviy va innovatsion yo'nalishlar bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Shubhasiz, bugungi kunda innovatsiyalarning ishlab chiqarish jarayonida mustaqil va muhim omilga aylanib borayotganligi obyektiv haqiqatdir. Ma'lumki, klassik iqtisodiy nazariyada ishlab chiqarishning asosiy uch omili — yer, mehnat va kapital deb ajratib ko'rsatilgan bo'lib, ushbu omillarni ilk bor tizimli ravishda J. B. Sey ilmiy jihatdan tahlil qilgan. Hozirgi davrda esa mazkur omillar tarkibi kengayib, tadbirkorlik qobiliyati, shuningdek, ayrim olimlar ta'kidlaganidek, axborot omili ham ishlab chiqarish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Bu holat iqtisodiy rivojlanishda axborot va bilimlarning tobora ortib borayotgan ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, tadbirkorlik qobiliyatini innovatsion omillar bilan almashtirish emas, balki ushbu yangi omillarni an'anaviy ishlab chiqarish omillari bilan o'zaro bog'liq holda talqin etish yanada maqbul hisoblanadi. Hozirgi davrda ishlab chiqarish omillarini chuqur tahlil qilish jarayonida har bir omil yanada batafsil tarkibiy unsurlarga ajratilmoqda. Xususan, yer yoki tabiiy resurslarga tayangan tadbirkorlik uzoq muddatli raqobat ustunligini ta'minlay olmaydigan omillar sirasiga kiradi. Buning sababi shundaki, tabiiy resurslarning aksariyat qismi qayta tiklanmaydi va ma'lum bir vaqt o'tishi bilan tugab qolish xavfiga ega. Aksincha, innovatsion omil deyarli cheksiz xususiyatga ega bo'lib, u yangi g'oyalar va texnologiyalarni shakllantirish, ularni ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etish imkonini beradi. Innovatsiyalarning kengayib borishi iqtisodiy subyektlarga uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi, chunki ular asosan yangi bilimlar va yuqori darajada rivojlangan omillarga tayanadi. Aslida, mazkur yondashuvni mutlaqo yangi g'oya sifatida baholash mumkin emas. Chunki J. B. Sey ishlab chiqarish omillarini tahlil qilar ekan, aynan tadbirkorning markaziy roliga alohida urg'u bergan. U tadbirkorni yer, kapital va mehnat kabi omillarni muvofiqlashtiruvchi asosiy shaxs sifatida talqin qilgan. Bundan tashqari, Sey tomonidan keng ma'noda tushunilgan mehnat omiliga nafaqat jismoniy mehnat, balki mahsulot ishlab chiqarish hamda ishlab chiqarishni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan ilmiy bilimlar va nazariy xulosalar ham kiritilgan. Bundan tashqari, mazkur fikr ingliz iqtisodchisi G. A. Gobson tomonidan yanada rivojlantirilib, u ijodiy qobiliyatlarni ham ishlab chiqarish omillari tarkibiga qo'shish zarurligini ta'kidlagan. U iqtisodiy tizimning yangi mahsulotlar yaratiladigan, yangi bozorlarni shakllantiradigan hamda ilg'or texnologiyalar joriy etiladigan qismini tahlil qilib, uni "progressiv ishlab chiqarish sohasi" deb atagan. Hozirgi ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha asosan innovatsion iqtisodiyot atamasi bilan ifodalanadi. Shuningdek, innovatsiya hodisasini



o'rganishda N. Kondratev va avstriyalik iqtisodchi J. A. Shumpeterning ilmiy merosiga murojaat qilmaslikning iloji yo'q. Aynan Shumpeter o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" asarida innovatsiya tushunchasiga dastlabki ilmiy ta'rifni bergan. U innovatsiyani mavjud ishlab chiqarish omillarining ilmiy va tashkiliy jihatdan yangicha uyg'unlashuvi hamda ularning tijorat muammolarini hal etishga yo'naltirilgan shakli sifatida izohlagan. Shumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy tizimlar rivojlanishining asosiy manbai deb e'tirof etib, ularni iqtisodiy o'zgarishlarning muhim ifodasi sifatida ko'rgan va besh tipik o'zgarishga alohida e'tibor qaratgan:

1. Yangi texnologiyalar, yangi texnologik jarayonlar yoki yangi ishlab chiqarish bozorlarini ta'minlash;

2. Yangi xususiyatlarga ega mahsulotlarni joriy etish;
3. Yangi xom ashyolardan foydalanish;
4. Ishlab chiqarishni tashkil etish va ishlab chiqarishni moddiy-texnik ta'minotidagi o'zgarishlar;
5. Yangi bozorlarning paydo bo'lishi.

### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, innovatsion tadbirkorlik faoliyatini olib borayotgan, ishlab chiqarish jarayonida xorijiy tajribani keng qo'llab, zamonaviy yangilik va texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda an'anaviy xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan sezilarli ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Jumladan, bunday korxonalarda ish haqi miqdori 2–3 barobar, mehnat unumdorligi esa kamida 2 barobar oshgani, eng muhimi, ishchi-xodimlarning turmush darajasi va hayot sifatining avvalgi davrlarga nisbatan ancha yaxshilangani hozirgi innovatsion iqtisodiy islohotlarning ijobiy samarasini yaqqol namoyon etadi.

Shu bilan birga, mavjud yutuqlarga qaramay, innovatsion rivojlanish jarayonida hal etilishi zarur bo'lgan qator muammolar ham saqlanib qolmoqda.

Xususan: -tadbirkorlarning boshqaruv faoliyatini

samarali tashkil etish borasidagi bilim va malakalari yetarli darajada shakllanmagani;

-ishchi-xodimlarning innovatsion yangilik va texnologiyalarni qisqa muddatda o'zlashtirish qobiliyatining pastligi;

-ichki va tashqi risklarni, innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojni hamda korxonalarning jahon bozoridagi raqobatdagi mavqeini to'liq baholash ko'nikmalarining yetishmasligi;

-korxonalarni rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish masalalariga lozim darajada e'tibor qaratilmayotgani;

-qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish hamda innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi institutsional mexanizmlarni ishlab chiqishda mavjud



kamchiliklar mavjudligi.  
Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:  
\*ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirish jarayonida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish zarur, bu esa ilmiy-innovatsion loyihalarga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi;  
\*innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar hajmini ko'paytirish hamda bozor sharoitida sog'lom raqobat muhitini kuchaytirish lozim;  
\*O'zbekistonda yaratilayotgan ilmiy ishlanmalarining xorijiy mamlakatlarda patentlanishini ta'minlash, shuningdek, innovatsion faoliyatni rag'batlantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblangan ishlanmalar uchun samarali marketing va bozorni o'rganishga yo'naltirilgan qidiruv tizimlarini rivojlantirish hamda davlat va institutsional darajada qo'llab-quvvatlash zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gujin A.A., Gujina G.N. Material Interests in the Economic Growth System // Moscow Scientific Review. 2012. № 12-1. P. 6.
2. Gujina G.N. Socio-Economic Essence and Principles of Forming a Strategic Management System // Bulletin of the Russian State Agrarian Correspondence University. 2009. № 6 (11). P. 141.
3. Ivanov M.A., Gujina G.N. Features of Risk Management in Market Conditions // Bulletin of the Russian State Agrarian Correspondence University. 2009. № 7 (12). P. 198.
4. Nazarshoyev N.M., Gujina G.N., Gujin A.A., Yezhkova V.G. Business Development Strategy as a Tool for Managing Competitiveness // Innovations and Investments. 2016. № 4. P. 90–92.
5. Petrukhina E.V., Gujin A.A., Velichko N.Yu., Nizharadze L.D., Volkova A.V., Oveshnikova L.V. Modern Management Theories. Oryol, 2014. — 110 p.